

# Amir Temur shahsiga bag'ishlangan ayrim xorij asarlari haqida

Dilafuz Bahodirovna Yusupova  
Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inglizzabon adabiyotlarda sharq qahramoni buyuk Amir Temur obrazi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** obraz, qahramon, sharq siymosi, milliy iftihor, milliy ruh

## About some foreign works dedicated to Amir Temur

Dilafuz Bahodirovna Yusupova  
Urganch State University

**Abstract:** This article analyzes the image of the great hero of the East Amir Temur in English language literature.

**Keywords:** image, hero, oriental figure, national pride, national spirit

Insoniyat taraqqiyotida, jamiyatning gullab yashnashida, xalqlar ijtimoiy turmush va hayotida buyuk shaxslarning xizmatlari cheksizdir. Bashariyat rivojini yuksaklarga ko'taraoladigan buyuk siymolar tarixda juda kam uchraydi.

Shunday buyuk insonlardan biri sohibquron Amir Temurdir. Jahon tarixida va adabiyotida o'zining boshqaruv siyosati, adolatparvarligi, ilmu ma'rifatligi bilan o'z o'rniga ega va bir necha xalqlarning hayotiga osoyishtalik, yuksak madaniyat, obodonchilik, ilmu ma'rifat olib kirganliklari bilan hamisha qadrlidir.

Yevroning ko'plab yozuvchi va olimlari Amir Temur shaxsiyatiga, hukmdorlik faoliyatiga katta qiziqish bilan qaraganlar va bu jarayon hanz davom etmoqda. P.Brachcholi, NikkoloMakkiavelli, Jan Baden, DesaKrua, E. Gomlioskabi yevropalik yozuvchilar o'z asarlarida Amir Temur siymosini badiiy talqin qilishga harakat qilganlar.

G'arb adabiyotida dastavval Amir Temur obrazini to'laqonli yaratishga intilgan ijodkor, Uyg'onish davri ingliz dramaturgiyasi va teatr san'atining asoschilaridan biri Kristofer Marlohisoblanadi. Uning Sohibqironga bag'ishlangan tragediyasi bir necha asrlardan beri uzluksiz teat sahnalarida namoyish etilmoqda. Mashhur ingliz dramaturgi Amir Temurni yengilmas, jismonan kuchli, mustahkam iroda egasi, jangchilarning yo'lboshchisi sifatida tasvirlaydi. U "Buyuk Temur", nomli asarini

Amir Temu rhyotiga bag'ishlab yozib, ushbu asarni 1590 yili nashrettirgan va shu tariqa mazkur drama London teatrlarida sahnalashtirila boshlangan.

Adib ushbu asarini yaratishda fransiyalik tarixchi Petro Perondining "Skiflarpodshosi Buyuk Temurning hayoti" kitobidan manba sifatida foydalanadi. Tragediyaning bosh qahramoni bobomiz Amir Temur bo'lib, u qadim Yunon, Rim va Karfagen hukmdorlari, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar va Gannibal kabi qahramonlardek Amir Temurga yuksak hurmatda munosabat bildiradi. G'arb Uyg'onish davri adabiyotida birinchibor Marlo Amir Temurni bunyodkor shaxs, qudratli sarkarda va odil hukmdor qiyofasida tasvirlaydi.

XVII asr G'arb adabiyotida yetakchilik qilgan klassisizm oqimi vakillari ijodida ham Sharq mavzusi muhim o'rintutadi. Bular orasidan Jak Pradoning "Temur yoxud Boyazidning o'limi" asari keng shuhrat qozondi. Bu asar keyinchalik Yevropa opera san'atida Amir Temur obrazi yaratilishida muhim manba bo'ldi.

Amir Temur haqidagi qo'l yozmalarda o'z faoliyati bilan Sharqdagi ko'pgina mamlakatlar va xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita ta'sir qilgan, hattoki, G'arbdagi davlatlarning manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgan ishlarni amalga oshirgan ulug' insonning shaxsi turibdi. Tabiiyki, Temur va temuriyzodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar mavjud. Bular Amir Temur davridan boshlab, birnecha asrlar mobaynida yaratilgan. Bu manba va adabiyotlar o'rta asrning murakkab hamda ulug' siymosi bo'lmish Temur haqida rang – barang qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan. Shu narsani ta'kidlash lozimki, keying o'nyilliklarda G'arbda Temur haqida bir necha to'plamlar, kitoblarning paydo bo'lishi uning shaxsi va davriga bo'lgan qiziqish susaymaganligi, e'tiborni o'ziga tortayotganligining dalilidir.

Bundan tashqari Amir Temur shaxsiga alohida qiziqqan mashhuring ingliz tarixchisi, qudratli Rim imperiyas iinqirozi hamda parchalanishiga oid hamma tomondan tan olingan ma'lum asarlarning muallifi E.Gibbon nashrlariga murojaat qilamiz. Bu nashrlarda muallif G'arbiy Yevropa va Sharqdagi o'rta asrlar tarixiga to'xtalganda, Temur shaxsini ham chetlab o'tmaydi: "Butun dunyoni istilo qilib, unga hukmronlik qilish shuhrat parast Temurning bosh maqsadi edi. Avlodlar hurmatiga ega bo'lish, ularning yodida qolish, bu oily janob zotning ikkinchi istagi edi. Ammo o'limdan so'ng ishon-shuhrat borasidagi xayollari samarasiz bo'lib chiqdi. Uning vasiyatlari Yevropaga noma'lumligicha qolaverdi, u tomonidan mag'lub qilingan xalqlar o'zlarining xo'rlanganliklari uchun qasd olish payiga tushdilar" Gibbon Temurning oddiy fuqarodan Osiyo hukmdori darajasiga ko'tarilishini alohida ta'kidladi.

G'arbiy Yevropa adabiyotlarida o'zining ilmiy va ma'rifiy ahamiyati jihatidan hozirgacha yagona o'ziga xos manba 1403-yili Temur poytaxti Samarqandga yuborilgan ispan elchisi Rui Gonzalez de Klavixoning xotira daftaridir. Mazkur

kundalik daftar birinchi marta 1582-yili Sevilya shahrida “Ulug’ Temurlang tarixi” nomi bilan, so’ngra 1782-yili Madridda “Ulug’ Temurlangning hayoti va faoliyati” sarlavhasi ostida nashr qilingan. Bu asar keyinchalik to’liq va ayrim parchalari alohida bosmadan chiqqan, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Bugungi kunda bizga ma’lum bo’lgan kuzatishlarni yakunlab, shunday xulosaga kelish mumkinki, Amir Temur haqidagi qo’l yozmalarda o’z faoliyati bilan Sharqdagi ko’pgina mamlakatlar va xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita ta’sir qilgan, hattoki, G’arbdagi davlatlarning manfaatlariga bevosita aloqador bo’lgan ishlarni amalga oshirgan ulug’ insonning shaxsi turibdi. Sohibquron Temur va temuriyzodalar hayoti va faoliyati haqida boy manbalar va adabiyotlar buyuk Temur davridan boshlab, bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Bu manba va adabiyotlar o’rta asrning murakkab hamda ulug’ siymosi bo’lmish Amir Temur haqidagi rang – barang qarashlarni o’zida mujassamlashtirgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmedov.B. Amir Temur darslari. “Sharq” nashriyoti. Toshkent, 2000,91-bet.
2. Muloqot. Toshkent, 2001. 27-bet.
3. История упадка и разрушения Римской Империи Эдуарда Гиббона. Часть VII, М. 1886, С. 170-172.
4. Якубовский А.Ю. Тимур (опыт краткой характеристики). –“Вопросы истории”, Москва, №8-9.